

NUTQNING NORMAL VA NUQSONLI RIVOJLANISHIDA KUZATILADIGAN NUTQIY FUNKTSIYALARING TAHLILI.

Oppoqxo'jayev Xojixuja Azimjon o'g'li

Qo'qon davlat pedagogika instituti
Maxsus pedagogika kafedrasи o'qituvchisi

Yakubova Nozima Maxmudovna

Maxsus pedagogika yo'nalishi 4-kurs talabasi

Axmedova Gavhar Ma'rufjon qizi

Maxsus pedagogika yo'nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada nutqning normal va nuqsonli rivojlanishida kuzatiladigan nutqiy funktsiyalarning tahlili, bolalarda nutq jarayonining kechishini, soha olimlarini bolalarda nutqini rivojlanish haqidagi qarashlari ochib berilgan.

Kalit so'z: alaliya, dislaliya, dizartriya, nutq nuqsoni, kommunikativ tizim, nutq, til normalari, verbal va noverbal komponentlar.

Nutqiy faoliyat tizimli jarayon bo'lib, o'z ichiga verbal va noverbal komponentlarni oladi. Uning psixojismoni asosi – kommunikativ tizim ostini, kognitiv tizim ostini, intellektual qobiliyatlarni o'z ichiga olgan til va nutqning funksional tizimidir (P.K.Anoxin, A.A.Zalevskaya, A.N.Kornev). Uning bunday murakkab tarkibi ontogenezning ilk bosqichlarida ayniqsa yorqin namoyon bo'ladi. Aynan mana shu davrda nutqning rivojlanishi kommunikativ ehtiyoj va qobiliyat, hissiy sohaning holati, bilish jarayonlari va qobiliyatlarning rivojlanish darajasi singari psixologik omillarga bog'liq bo'ladi. A.N.Kornev psixonutqiy rivojlanishning ko'rsatkichlari sifatida kommunikativ hatti-harakatlarni, hissiy ta'sirchanlikni, faollikni va u bilan bog'liq sensor jarayonlarni, ehtiyyorsiz diqqatni ko'rsatadi.

Zamonaviy psixologiya, pedagogika ilmida nutq kishilarning faoliyati jarayonida muloqot shakli sifatida tarixan tarkib topgan deya talqin etiladi. Nutq faqatgina inson uchun xos bo'lgan, uning faoliyatni ixtiyoriy boshqarish va nazorat etishni ta'minlovchi, oliy ruhiy funktsiyalarning paydo bo'lishi uchun muhim shart

hisoblanadi. Til – belgilar tizimi bo`lib, ular yordamida inson o`z hislari, fikrlari, tajribasini kodlaydi. Til muloqot va tafakkurning asosiy vositasi sifatida xizmat qilib, ma`lumotlarni saqlash va uzatishning, jumladan avlodlardan avlodlarga uzatishning vositasi hisoblanadi. Nutqiy faoliyat mehnat, o`yin, o`quv, kommunikativ va bilish faoliyati, jumladan mnestik kabi faoliyatning xilma-xil turlarini namoyon etib, ularga “xizmat qiladi”. Nutq bolaning ruhiy rivojlanishida muhim rol o`ynaydi (L.S.Vigotskiy, I.A.Zimnyaya, A.N.Leontyev).

O`z navbatida imkoniyati cheklangan bolalarning ma`lum guruhida ruhiyatning turli xildagi buzilishlari (birinchi navbatda – intellektual rivojlanishning buzilishlari) odatda tilning qator komponentlarining (birinchi navbatda – semantik, sintaksik va leksik) rivojlanishdan ortda qolishiga yoki patologik buzilishiga olib keladi.

Nutqiy rivojlanishida nuqsonlari bo`lgan ko`pgina bolalarda fonematik eshituv va fonematik idrok kamchiliklari kuzatiladi. G.F.Sergeyevanining ta`kidlashicha, dizartriya va rinolaliya nutq nuqsonida nutq harakat analizatori funksiyasining buzilishi tovushlarni eshituv orqali idrok etishga sezilarli ta`sir etadi. Ko`pincha ma`lum o`zar bog`liqlik kuzatiladi: talaffuzda tovushlar qanchalik ko`p differensiatsiyalansa, tovushlarni eshituv orqali farqlash shunchalik muvaffaqiyatliroq amalga oshadi (Ye.N.Vinarskaya).

Nutqi rivojlanmagan bolalarda ehtiyyoriy diqqatning o`ziga xosliklari uning chalg`uvchanligida yorqin namoyon bo`ladi. Og`ir nutq nuqsoniga ega bolalarda ixtiyoriy diqqatning quyi darajasi ularda faoliyatning shakllanmasligiga yoki faoliyat tizimining ma`lum darajada buzilishiga olib keladi (Y.F.Garkusha, O.N.Usanova).

T.S.Ovchinnikova nutq nuqsoniga ega maktabgacha yoshdagi bolalar diqqatini tadqiq etar ekan, qator o`ziga xosliklarni aniqladi. Korrektur sinovni bajarishda quyi darajadagi unumdonlik belgilangan. Xatolar qatorida birinchi o`rinni tushirib qoldirishlar egallaydi. Shuningdek diqqatni taqsimlashdagi

kamchiliklar, yuqori chalg'uvchanlik, umumiy uyushmaganlik aniqlangan. Shu bilan bir qatorda “Nuqtalar” metodikasini bajarishda yodda saqlab qolish va diqqat hajmiga ko`ra nutq nuqsoniga ega va normal nutqga ega bolalar o`rtasida ishonchli tafovutlar aniqlanmagan.

Ko`pgina tadqiqotchilar nutqi to`liq rivojlanmagan bolalarni nazarda tutib, ularning intellekti saqlangan; biroq alohida kognitiv operatsiyalarning kamchiliklari mavjud deya tahmin qilishgan. (T.N.Volkovskaya, G.V.Gurovets, N.S.Jukova, YE.M.Mastyukova, A.S.Zavgorodnyaya; YE.A.Nikulina, R.I.Lalayeva, O.N.Usanova, T.N.Sinyakova, T.A.Fotekova).

Bilish faoliyatining holati motor alaliyaga ega bolalarda ayniqsa puxta o`rganilgan. R.A.Belova-David tadqiqotlari natijasida alaliyaga ega bolalar uchun faqatgina rang, shakl, kattalik, predmetlarning fazoviy va miqdoriy munosabatlari haqidagi sodda tasavvurlar xos ekanligi aniqlangan. Muallifning ko`rsatishicha, ko`rgazmali-harakat tafakkur saqlangan holda ko`rgazmali-obrazli va so`z-mantiqiy tafakkur normadan ortda qoladi.

Nutqiy nuqsonlarda hissiy-irodaviy doira va shaxs rivojlanishining o`ziga xosliklari yetarlicha o`rganilmagan. Nutqiy nuqsonni anglash, diqqatning unga qaratilganlik darajasi asosan duduqlanuvchi bolalarda (L.I.Belyakova, G.A.Volkova, A.Y.Panasyuk, V.I.Seleverstov, A.G.Shembel) va ovoz buzilishlariga ega shaxslarda o`rganilgan (O.S.Orlova, L.YE.Goncharuk).

O.A.Slinko maktabgacha yoshdagi nutqi to`liq rivojlanmagan bolalar shaxsining rivojlanishi va ularda shaxslararo munosabatlarning shakllanish o`ziga xosliklarini o`rganar ekan, nutqi to`liq rivojlanmagan bola shaxsining shakllanishiga nutqiy nuqsonning ifodalanganlik darajasi ta`sir etishini va nutqiy yetishmovchilik muloqot vositalarining shakllanmaganligi hisobiga tengdoshlar davrasida salbiy munosabatlarning asosiy sababi bo`lishi mumkinligini ta`kidlaydi. Nutqi to`liq rivojlanmagan bolalar kommunikativ soha o`ziga xosliklarini va o`yin faoliyatining holatini o`rganishga doir qator tadqiqot ishlari G.V.Chirkina

rahbarligi ostida amalga oshirilgan. Mazkur tadqiqot natijalari nutqiy va kommunikativ ko`nikmalarining o`zaro bog`liqligi haqidagi tasavvurlarni boyitadi (L.G.Solovyeva).

Lug`at boyligining kambag`alligi va differensiatsiyalashmaganligi, bog`langan bayonning o`ziga xosligi singari nutqiy rivojlanishning o`ziga xosliklari to`laqonli muloqotni amalga oshirishga to`sinqinlik qiladi. Mazkur qiyinchiliklar natijasi sifatida muloqotga bo`lgan ehtiyojning pasayishi, dialogik va monologik nutq shakllarining shakllanmaganligi, muloqotni amalga oshirishga bo`lgan qiziqishning mayjud emasligi muloqot vaziyatida mo`ljal ola bilmaslik, negativizm singari hulq-atvor o`ziga xosliklari kuzatiladi.

Maktabgacha yoshdagagi nutqi to`liq rivojlanmagan bolalar o`yin faoliyati rivojlanganligining quyi darajasi: syujetning kambag`alligi, o`yinning protsessual xarakteri, nutqiy faoliyatning sustligi alohida e`tiborni o`ziga jalb etadi (L.G.Solovyeva). Bunday bolalarning ko`pchiligi uchun turli nevrologik simptomatika bilan bog`liq ravishda yuqori qo`zg`aluvchanlik xarakterli bo`lib, shu bois tarbiyachilar tomonidan nazorat etilmagan o`yinlar ba`zida juda tashkillashtirilmagan tus oladi.

Nutqiy nuqsonga ega bolalarda motorika, ko`rvu-motor koordinatsiya kamchiliklari kuzatilib, bu har qanday faoliyatning tashkiliy momentlari bo`lgan taktil-motor hissiyotlarning yetarlicha rivojlanmaganligini ko`rsatadi. Fazoviy tasavvurlar va obrazli soha yetarlicha rivojlanmagan. Mazkur kamchiliklar birinchi navbatda bolalarning tasviriy ijodga bo`lgan qobiliyatiga ta`sir etadi. Alaliyaga ega bolalarda tasvirlangan rasmlar mavzusining torligi va mazkur mavzularning qayta-qayta takrorlanishi, predmet va hodisalarni tasvirlash usullarining mayjud emasligi, yasash va qurish usullarining kambag`alligi, qaychidan foydalana olmasliklari va kuzatiladi (L.S.Svetkova, T.M.Pirsxalayshvili). Elementar texnik usullarni egallagan bolalar ham mashg`ulotlari davomida yetarlicha sabot, iroda va diqqatni

namoyish etmaydilar. O`zgalar va shaxsiy faoliyatga bo`lgan tanqidiy munosabat ham pasaygan.

O.N.Usanova va OA.Slinkoning ta'kidlashicha, nutqiy nuqsonga ega bolalar uchun o`quv faoliyatning o`ziga xosliklari xarakterli. Masalan, duduqlanuvchi bolalar uchun odatiy shart-sharoitlarning o`zgarishi faoliyat turg`unligining pasayishiga, diqqatning tarqoqligiga olib keladi.¹⁶ Bir faoliyat turidan ikkinchi bir faoliyat turiga ko`chish bilan bog`liq topshiriqlar qiyinchilik tug`diradi. Aqliy va iroda zo`riqishini talab etuvchi topshiriqlarni bajarishda topshirilgan ish turidan nisbatan odatiy, avval egallangan ish turiga o`tish kuzatiladi. Ba`zi bolalarda shaxsiy singari, o`zgalar faoliyati natijalarini ham mustaqil nazorat eta olmaslik kuzatiladi. Mazkur bolallar mashg`ulotlar davomida shaxsiy javoblarni fikrlab, tegishli misollarni tayyorlash, do`stlari javoblarini tinglash, qiyinchiliklar tug`ilganda ularga yordam berish, noto`g`ri javoblarni to`g`rilashda qiyinchiliklarni sezadilar. O`qish davomida ular o`z shaxsiy xatolarini, o`rtoqlarining xatolarinin sezmaydilar, dialoglarni “rollarga” bo`lingan holda o`qish davomida “o`z” so`zlarini o`z vaqtida talaffuz etmaydilar, ba`zan har ikki kishi so`zini bir vaqtida o`qiydilar. Darslarga tayyorgarlik ko`rish davomida mazkur bolalar topshiriqlarni bajarishning mexanik usullariga murojat etib, o`qilganlarni anglab, tushunib yetishni emas, balki yod olishni ma`qul ko`radilar.

Shunday qilib biz ruhiy va nutqiy faoliyatning asosiy tarkib topuvchilari o`rtasidagi o`zaro munosabatlarni atroflicha o`rganib chiqdik. Bizning tadqiqotimiz predmeti mnestik faoliyat bo`lgani bois, mazkur faoliyatning nutqiy rivojlanishi normada bo`lgan va nuqsonga ega bolalarda uning shakllanish o`ziga xosliklari alohida e`tiborga loyiq.

Foydanaligan adabiyotlar ro`yhati:

- Azimjon o`g, Oppoqxo`jayev Xojixuja. "YUQORI SINF
O'QUVCHILARINI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH

- JARAYONINI TASHKIL ETISH TAMOYILLARI." *Science Promotion* 1.2 (2023): 18-25.
2. Azimjon o'g, Oppoqxo'jayev Xojixuja, and Muxammadjonov Shohruhbek Shuxratbek o'g'li. "INKLYUZIV TA'LIMNING HUQUQIY-ME'YORIY ASOSLARI." *Science Promotion* 1.1 (2023): 50-57.
 3. Oppoqxo'jayev, Xojixuja, and Faxriddin To'ychiboyev. "MAXSUS EHTIYOJLI BOLALARNING TA'LIM-TARBIYASIDAGI TENG HUQUQLILIK MUAMMOSINI HAL ETISHDA INKLYUZIV TA'LIMNI AHAMIYATI." *Инновационные исследования в науке* 2.5 (2023): 27-33.
 4. Oppoqxo'jayev, Xojixuja, and Qunduzabibi Yusupova. "MAXSUS PEDAGOGIKA FANLARINI O 'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARGA ASOSLANGAN AMALIY MASHG 'ULOTLARINI LOYIHALASH." *Development and innovations in science* 2.5 (2023): 25-31.
 5. Oppoqxo'jayev, Xojixuja, and Ozoda Samayeva. "INKLYUZIV TA'LIMGA JALB QILINGAN O'QUVCHILARDA TAYANCH KOMPETENTSIYALARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI." *Молодые ученые* 1.2 (2023): 99-102.
 6. Oppoqxo'jayev, Xojixuja, and Nozima Yakubova. "METHODS USED IN FORMING NATIONAL ETIQUETTE SKILLS IN PRIMARY CLASS STUDENTS OF SPECIAL SCHOOLS." *Молодые ученые* 1.2 (2023): 103-107.
 7. Azimjon o'g, Oppoqxo'jayev Xojixuja. "INCLUSIVE EDUCATIONAL STRUCTURE AS A SOCIAL PHENOMENON." (2023).
 8. Azimjon o'g, Oppoqxo'jayev Xojixuja. "THE EFFECTIVENESS AND DRIVING FORCES OF THE APPLICATION OF PEDAGOGICAL METHODS IN THE PROCESS OF INCLUSIVE EDUCATION." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 11.3 (2023): 558-562.
 9. Azimjon o'g, Oppoqxo'jayev Xojixuja, and Yigitaliyeva Sarvinoz. "WAYS TO INVOLVE CHILDREN IN NEED OF SPECIAL HELP IN INCLUSIVE EDUCATION." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 11.3 (2023): 519-523.
 10. Sadikovna, Rakhimova Khurshidakhon, and Oppoqxo'jayev Xojixuja Azimjon o'g. "THE IMPORTANCE OF INCLUSIVE EDUCATION IN SOLVING THE PROBLEM OF EQUALITY IN THE EDUCATION OF CHILDREN WITH SPECIAL NEEDS." *Open Access Repository* 4.3 (2023): 757-764.

11. Oppokhujayev, Khojikhija, and Makhliyo Yuldoshzoda. "PRINCIPLES OF WORKING WITH CHILDREN WITH COCHLEAR IMPLANTS." *International Conference on Education and Social Science*. Vol. 1. No. 1. 2023.
12. Oppokhujayev, Khojikhija, and Ziyoda Shavkatova. "PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE FORMATION OF NATIONAL ETIQUETTE SKILLS IN ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS OF A SPECIAL EDUCATIONAL INSTITUTION." *International Conference on Multidisciplinary Research*. Vol. 1. No. 1. 2023.
13. Sadikovna, Rakhimova Khurshidahon. "Objectives and tasks of cochlear implantation." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 12.4 (2022): 671-675.
14. Sodiqovna, Rakhimova Khurshidahon. "Preparation of preschool children with cochlear implants for independent learning." *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* 8.8 (2020): 159-161.
15. Sodiqovna, Rakhimova Khurshidahon. "Use Of Innovative Technologies In The Formation Of Speech Skills In Children With Hearing Disabilities." *Euro-Asia Conferences*. Vol. 1. No. 1. 2021.
16. Shahnigor, Rakhimova Khurshidakhon Sadikovna Khomidova. "FORMATION OF KNOWLEDGE, SKILLS AND COMPETENCES IN THE PROCESS OF TRAINING CHILDREN WITH HEARING DEFECTS TO WORK." *Confrencea* 3.03 (2023): 188-192.
17. Sadikovna, Rakhimova Khurshidakhon. "COCHLEAR IMPLANTATION: AN INNOVATION IN THE DEVELOPMENT OF TECHNOLOGY, MEDICINE, DEAF PEDAGOGY AND SPEECH THERAPY." *Open Access Repository* 4.2 (2023): 321-330.
18. Sadikovna, Rakhimova Khurshidakhon, and Rustamova Feruzabau. "CONTRIBUTION OF CHARLES MIKHAIL EPE TO THE EDUCATION OF DEAF CHILDREN." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 11.3 (2023): 563-566.
19. O'ghiloy, Rakhimova Khurshidakhon Sadikovna Kurbanuva. "CHILDREN WITH LOCAL MOVEMENT DEFECTS." *Confrencea* 3.03 (2023): 226-230.
20. Raximova, Xurshidaxon. "NATIONAL AND FOREIGN ADVANCED TRENDS IN HIGHER EDUCATION EFFICIENCY IMPROVEMENT." *JOURNAL OF NORTHEASTERN UNIVERSITY* (2022).

21. Sadikovna, PhD Rakhimova Khurshidakhan, and Nabiyeva Umidakhan. "ORGANIZING SOCIAL WORK ACTIVITIES OF STUDENTS WITH HEARING PROBLEMS." (2023).
22. Sadikovna, PhD Rakhimova Khurshidakhan, and Odilova Rislig'oy. "PROBLEMS OF PREPARING HIGH SCHOOL STUDENTS WITH HEARING DEFECTS FOR FAMILY LIFE." (2023).
23. Sadikovna, PhD Rakhimova Khurshidakhan, and Sharafuddinova Zuhra. "FORMATION OF MATHEMATICAL CONCEPTS OF CHILDREN WITH HEARING DEFECT USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES." (2023).
24. Komiljon, Raximova Xurshidaxon Sadikovna Sattarova Kamola. "PEDAGOGICAL AND EDUCATIONAL SYSTEM OF EDWARD SEGEN IN SPECIAL PEDAGOGY." *Confrencea* 3.03 (2023): 63-67.
25. Sadikovna, Rakhimova Khurshidakhan. "CORRECTIONAL AND PEDAGOGICAL WORK SYSTEM OF AUDITORY-SPEECH REHABILITATION OF CHILDREN WITH COCHLEAR IMPLANTS." *International Journal of Early Childhood Special Education* 14.6 (2022).
26. Madinakhan, Makhmudova, and Abduvahobova Irodakhan. "PECULIARITIES IN THE DEVELOPMENT OF PRESCHOOL CHILDREN WITH MENTAL RETARDATION." (2023).
27. Feruza, Teshabaeva, Mahmudova Madina, and Yuldasheva Dilbar. "The essence of inclusive education in developed countries." *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol 8.1 (2020).
28. Sobirkhanovna, Makhmudova Madinakhan, and Akhmedova Vazirakhan. "EFFECTIVE ORGANIZATION OF CORRECTIONAL-LOGOPEDIC WORK IN CHILDREN WITH CEREBRAL PALSY." *Open Access Repository* 4.3 (2023): 134-141.
29. Teshaboeva, Feruza Raximovna. "Literacy education of speech impaired children as a pedagogical psychological problem." *Confrencea* 5.05 (2023): 299-302.